

Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

Qayd etilsinki, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda mustaqillik yillarida xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlayotgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi, davlat xizmatlari ko'rsatishning to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz zamonaviy interaktiv shakllari joriy etilmoqda, davlat bilan ishbilarmonlar o'rtasida tizimli muloqot yo'lga qo'yildi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rta sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omili sifatida kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Shu bilan birga, taraqqiyotning hozirgi bosqichida biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalarida shakllangan yondashuvlarni qaytadan ko'rib chiqish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishning yangi tizimi yaratilishini taqozo etmoqda.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada faol jalb etish va xususiy biznesini boshlashga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog'ozbozliksiz tezkor hal etishga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasining barqaror ishlashi va yanada rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi amaliy mexanizmning samarali tizimini yaratish zarur.

Shu o'rinda, maqomi, faoliyat yo'nalishi va ko'lami, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha tadbirkorlik subyektlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining vazifalari, faoliyat yo'nalishlari va vakolatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va sog'lom sherikchilik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini

qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o'zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko'mak berish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Iqtisodiyot vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Adliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining, shuningdek, tadbirkorlik tuzilmalarining O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tizimini tubdan qayta isloh etish to'g'risidagi takliflari qabul qilinsin hamda uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib, quyidagilar belgilansin:

a) tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – tadbirkorlik subyektlarini, ayniqsa o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davrida ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofazasining kafolatlarini kuchaytirish, jadal rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berish, xususiy mulk va tadbirkorlikning ustuvorlik roli va daxlsizligini ta'minlash, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, jumladan:

vakolatli organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi holatini tahlil qilish hamda uning natijalarini tizimli asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga taqdim etish;

tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligining, avvalo mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishning amaliy mexanizmini joriy etish hamda ularning faoliyati bo'yicha mustaqil baholashni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlariga nisbatan shikoyat arizalari bergan tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qilish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyati monitoringini amalga oshirish hamda ular faoliyati tekshiruvlarida Palata a'zolarining ishtirok etishini ta'minlash.

b) ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasida – tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi ustidan jamoat ekspertizasini tashkil etish va jamoat nazoratini kuchaytirishga keng jalb qilish, jumladan:

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat dasturlari, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

tadbirkorlik subyektlarini ishbilarmonlik muhiti holatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga keng jalb qilish, tadbirkorlik tuzilmalari bilan birgalikda me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini, jumladan, sanoat, transport, qurilish, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, savdo va xizmatlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalar bo'yicha ekspert kengashlarini tashkil etish orqali tashkil etish;

tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlarini mustahkamlash, ularning rivojlanishini rag'batlantirishni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

respublikamiz tumanlari (shaharlari), viloyatlari kesimida joylardagi ishbilarmonlik muhitining holati hamda qonunchilikdagi me'yorlar va talablarning amalga oshirilishi natijalari bo'yicha har chorakda tahlil o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga ularni yaxshilash bo'yicha tahliliy materiallar va takliflarni taqdim etish.

v) tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish sohasida – tadbirkorlik subyektlariga biznesni tashkil etish, yuritish va yanada rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish, davlat organlari va bozor infratuzilmasi subyektlari xizmatlaridan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar va sharoitlar yaratish, maslahat yordami va axborot ta'minotini taqdim etishda quyidagilar orqali ko'maklashish:

yangidan faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarni joylashtirish uchun biznes-inkubatorlar faoliyatini yaratish va tashkil etish hamda ularga biznes-rejalarni tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olish va amaliy masalalarni hal etishda ekspert, huquqiy va maslahat yordami ko'rsatish;

tadbirkorlarning investitsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olishiga yordam berish;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda, ular faoliyati bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilganida tadbirkorlik subyektlariga huquqiy va yuridik yordam ko'rsatish;

moliyaviy va tovar-xomashyo resurslari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, texnologik mashinalar va qurilmalar, ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek, yer maydonlaridan foydalanishda amaliy yordam ko'rsatish;

Savdo-sanoat palatasi a'zolari va hamkorlari ishtirokida jamoatchilik asosida qo'mitalar, ishbilarmonlik va muvofiqlashtirish kengashlarini tashkil etish;

innovatsiya tadbirkorligini joriy etishga, "startup" loyihalar, yoshlarning, avvalo oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining o'z biznesini tashkil qilish va yuritishga, shuningdek, aholi bandligi va daromadlarining jadal o'sishini ta'minlashga xizmat qiladigan kichik, xususiy va oilaviy tadbirkorlik, kasanachilikning turli shakllarini jadal rivojlantirishga faol ko'maklashish.

g) davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik sohasida – davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari – qonunchilik, sud va ijro etuvchi hokimiyatlar, shuningdek, bank-moliya tashkilotlari va bozor infratuzilmasining boshqa subyektlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlashni moslanuvchanligi va natijadorligiga xizmat qiladigan samarali o'zaro hamkorlik tizimini va yangi ish shakllarini joriy etish, jumladan:

tadbirkorlik subyektlari bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, joylardagi barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga ko'maklashish, "to'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa" tamoyili bo'yicha o'zaro hamkorlikning amaliy va samarali mexanizmini yaratish;

tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini qabul qilish va qayta ishlash, vakolatli organlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etish, shuningdek, ularning ijro etilishi ustidan monitoring olib borish va tahlil qilish;

viloyatlar markazlari, tumanlar va shaharlarda Tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini tashkil etish, ularning vakolatli davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, davlat xizmatlari taqdim etuvchi xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash.

d) tadbirkorlik subyektlarini o'qitish va kadrlar tayyorlash sohasida – tadbirkorlik tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi sifatini tubdan oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, har bir tuman va shaharlarda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash doimiy kurslarini quyidagi usullar orqali tashkil etish:

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan Respublika tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish markazi va uning hududiy filiallari bilan, jumladan, kasb-hunar kollejlari negizida mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida, o'zaro hamkorlikni tashkil etish;

markaz faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar va

chet davlatlarning tadbirkorlarni o'qitish bo'yicha muqobil markazlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish;

tadbirkorlarga biznes yuritish asoslari, biznes-rejalar tuzish, tadbirkorlik faoliyati sohasida qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa zarur fanlarga o'qitishni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik subyektlari uchun o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'tkazish;

tadbirkorlarga xodimlarni tanlash va o'qitishda, ularning kasb malakasini doimiy oshirishda ko'maklashish, hududlar va tadbirkorlik sohasida malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga davlat buyurtmalarini shakllantirishda ishtirok etish;

ta'limni tashkil etish uchun oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlarning o'qituvchilari, amaliyotchi-mutaxassislar, yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

e) tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish sohasida – respublikamiz tadbirkorlik subyektlarining xalqaro ishbilarmonlik hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, mahalliy korxonalar mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqarilishini ta'minlash, milliy brendlarni xorijda faol ilgari surish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, jumladan:

biznes-forumlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarni tashkil etish va ularda mahalliy tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta'minlash;

tadbirkorlik subyektlariga ishonchli hamkorlar, yangi bozorlarni izlash va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, eksport turlarini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishda yordam ko'rsatish;

tashkil etilgan kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga oid loyihalarni amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari, jumladan xorijiy investorlarga har tomonlama yordam ko'rsatish;

mazkur vazifalarni amalga oshirishda respublikamizning chet eldagi diplomatik vakolatxonalarning savdo-iqtisodiy masalalari bo'yicha maslahatchilari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining chet eldagi vakolatxonalari bilan faol o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

2. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi belgilangan aniq strategik maqsadlar

va asosiy vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlasin, Savdo-sanoat palatasi Prezidiumi majlislarida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini muntazam ko'rib chiqsin.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatining strategik maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama yordam ko'rsatishni ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi muassislarining quyidagi takliflari ma'qullansin:

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining qurultoyi oliy boshqaruv organi hisoblanadi va u har to'rt yilda kamida bir marta yig'iladi;

qurultoylar orasida palataning boshqaruv organi qurultoy delegatlari tomonidan saylanadigan 25 kishidan iborat O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Prezidiumi hisoblanadi;

palataning ijro etuvchi organi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ijroiya qo'mitasi hisoblanib, u o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Prezidiumiga bevosita hisobot beradi;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi syezdining delegatlari tomonidan saylanadi;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Prezidiumi raisi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ijroiya qo'mitasi ishini boshqaradi;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Ijroiya qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari lavozimlariga O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisining tavsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Prezidiumi tomonidan tayinlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga quyidagi huquqlar berilsin:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralarga ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solish masalalari bo'yicha takliflar taqdim etish;

ekspert kengashlarini tashkil etish, shuningdek, vakolatli davlat organlariga qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha noaniqliklar va turlicha yondashuvlarni bartaraf etish bo'yicha majburiy javob talab etiladigan yozma so'rovnomalarni taqdim etish;

Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralarga biznes rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan va cheklayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilish to'g'risidagi takliflarni taqdim etish;

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tadbirkorlik subyektlarida o'tkaziladigan tekshiruvlarning muddatlari va sonini belgilashda, tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qilish uchun bevosita ularning faoliyati tekshiruvlarida ishtirok etish, shuningdek, tekshiruvlarning natijasi bo'yicha qabul qilingan nazorat organlarining qarorlariga norozilik bildirish;

tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi nizolarni tartibga solishni ta'minlash maqsadida davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari va ularning vakolatli shaxslaridan zarur ma'lumotlar, hujjatlar va materiallarni so'rab olish;

jinoiy ishlar bo'yicha amaliyotda jamoat himoyachilari sifatida ishtirok etish;

davlat organlarining vakolatli shaxslari qarorlari, harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyatlar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari nomidan sud jarayonining istalgan bosqichida ishtirok etish, shuningdek, shikoyat arizalari bilan bir qatorda apellatsiya, kassatsiya shikoyatlari, arizalar, jumladan nazorat tartibida rad etish to'g'risidagi xatlarni taqdim etish;

davlat aktivlarini xususiyashtirish, jumladan davlat mulki obyektlarini "nol"ga teng xarid qiymati bo'yicha sotish, shuningdek, davlat organlari va davlat xizmatlarining ayrim funksiyalarini xususiy sektorga berish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish to'g'risida takliflar taqdim etish;

o'zining tarkibida belgilangan tartibda ta'lim muassasalarini tashkil etish.

5. Belgilansinki:

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash to'g'risidagi xulosani berish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladigan me'yoriy-

huquqiy hujjatlarning loyihalari majburiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilishi zarur;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi me'yoriy-huquqiy hujjat loyihasiga mutlaqo yoki ma'lum qismiga qarshi bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi me'yoriy-huquqiy hujjat loyihasini tasdiqlaydigan qonunchilik va ijro etish hokimiyati organlariga o'z xulosalarini taqdim etish huquqiga ega;

tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi yoki cheklovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularni bekor qilish zaruriyati to'g'risida taqdim etilgan tavsiyalar va majburiy javobni talab qiladigan yozma murojaatlar qonunda belgilangan muddatda majburiy ravishda ko'rib chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga ularni ko'rib chiqish natijalari haqida asoslangan xulosalar taqdim etilishi lozim;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi vakillari majburiy tartibda davlat organlari, jumladan, nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari huzurida tashkil etiladigan jamoatchilik maslahat kengashlarining tarkibiga kiritiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibida viloyat markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida, tumanlar va shaharlardagi bo'limlari bilan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida "yagona darcha" tamoyili asosida tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha yagona markazlar bilan qo'shma joylashtirish tamoyili asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilsin.

7. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

zarur shart-sharoitlarni yaratish va bir joyning o'zida keng ko'lamlı davlat organlari hamda bozor infratuzilmasi subyektlarining xizmatlari, biznes-xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

tadbirkorlik subyektlariga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, axborot ta'minoti, davlat xizmatlaridan foydalanishda (ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish, litsenziyalash va boshqa hujjatlar) ko'mak berish;

biznes-rejalar ishlab chiqish, shuningdek, lizing, sug'urta va baholash xizmatlaridan foydalanish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash;

moliyaviy, tovar-xomashyo va tabiiy resurslar, texnologik mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek, yer maydonlaridan foydalanishda ko'maklashish;

soliqqa tortilish, ishchilar yollash, statistika, moliya, soliq va boshqa hisobotlarni topshirish, bank xizmatlari, bino va joylarni ijaraga olish, davlat mulki obyektlarini "nol" qiymatida xarid qilishda maslahatlar berish;

xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etishda, jumladan tashqi savdo hamkorlar bilan kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishda, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda yordam berish;

tadbirkorlik subyektlari uchun tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha bozor infratuzilmasi subyektlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralarni tashkil etish.

8. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2017-yilning 1-iyuligacha bo'lgan muddatda "bevosita va qayta aloqa" tamoyili bo'yicha amaliy va samarali o'zaro hamkorlik mexanizmini yaratish maqsadida, tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini qabul qilish, ko'rib chiqish hamda takliflarini muhokama qilish bo'yicha maxsus portalni tashkil etsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil qilish amaliyotiga quyidagilar tatbiq etilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolarining iqtisodiy faoliyatning muammoli masalalarini muhokama qilish, ularni hal etish bo'yicha tadbirkorlarning takliflarini, shuningdek, yangi biznes-g'oyalar va loyihalar amalga oshirilishini muhokama qilish uchun tadbirkorlar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'mitalari bilan hamkorlikda xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari va xodimlarining hisobotlarini, shuningdek, deputatlarning sayyor qabullarini tashkil etish;

har yili biznes-hamjamiyat, mintaqaviy va xalqaro biznes vakillarining Iqtisodiy forumini o'tkazish, uning maqsadi sifatida biznes doiralar, ilmiy hamjamiyat, Hukumat va aholi o'rtasidagi muloqotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston, mintaq va jahon iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini mustaqil, xolisona tahlil qilish asosida mustahkam aloqalar o'rnatish.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddat ichida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori loyihasini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun taqdim etsin.

11. Savdo-sanoat palatasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddat ichida Vazirlar Mahkamasiga quyidagilarni taqdim etsin:

mazkur Farmondan kelib chiqib, qonunchilikka kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflar;

yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibida xorijiy investorlar, shuningdek, chet ellik hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarda milliy kompaniyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofaza qilishini ta'minlash bo'yicha xalqaro tijorat arbitraj sudini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2017-yil 19-iyun

O'ZA